

Finlandiya ekspertlari bilan uchrashuv

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar institutida Finlandiya Respublikasining O'zbekiston Respublikasidagi favqulotda va muxtor elchisi Mariya Liivali bilan uchrashuv bo'lib o'tdi. Suhbat chog'ida respublikada amalga oshirilayotgan iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy islohotlar, shuningdek, O'zbekiston va Finlandiya o'rtasidagi munosabatlarni rivojlantirish istiqbollari muhokama qilindi.

M.Liivali O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ichki siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar va Toshkentning konstruktiv tashqi siyosati ularning miqyosi va samaradorligi bilan jralib turishini ta'kidladi. Uning fikriga ko'ra, O'zbekiston Markaziy Osiyoda barqaror rivojlanishning asosiy omili hisoblanadi. O'zbekistonning qo'shni mamlakatlar, xususan, Afg'oniston bilan munosabatlarni yo'lga qo'yishga bo'lgan yondashuvlari mintaqadagi vaziyatni sezilarli darajada yaxshilanishiga olib keldi.

Suhbat davomida Finlandiya O'zbekistonning yetakchi ilmiy markazlari bilan hamkorlikni kengaytirishdan manfaatdor ekanini ta'kidladi.

